

Fransuz va o'zbek tillaridagi tez aytish va topishmoqlar: shakllari va tasnifi

Usmonova Nilufar Suvon qizi

O'zDJTU mustaqil tadqiqotchi

Fransuz tili nazariy fanlar kafedrası stajyor-o'qituvchisi

usmonovanilufar313@gmail.com

Annotatsiya: Har bir millatning og'zaki ijodi milliy madaniyatining o'ziga xos bo'lagidir. Tez aytishlar va topishmoqlar xalq og'zaki ijodining muhim qismi hisoblanadi. Ular xalqning tafakkuri, tili va ma'naviyatining yorqin ifodasi bo'lib, turli tillarda o'ziga xos shakl va mazmunga ega. O'zbek tilida ular ko'proq an'anaviy hayotga bog'liq bo'lsa, fransuz tilida ularning zamonaviy va abstrakt xususiyatlari ustun. Ikkala tilda ham bu janrlarni nutqni rivojlantirish, mantiqni oshirish uchun foydali vosita sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: tez aytish, topishmoq, tovush, badiiy obraz, ritmik shakl, tasnif, talaffuz.

Аннотация: Устное народное творчество каждой нации является неотъемлемой частью её национальной культуры. Скороговорки и загадки считаются важной составляющей фольклора. Они ярко отражают мышление, язык и духовность народа, принимая в разных языках уникальные формы и содержание. В узбекском языке они в большей степени связаны с традиционным образом жизни, тогда как во французском языке преобладают современные и абстрактные черты. В обоих языках эти жанры рассматриваются как полезное средство для развития речи и логического мышления.

Ключевые слова: скороказание, загадка, звук, художественный образ, ритмическая форма, классификация, произношение.

Abstract: The oral folklore of every nation is an integral part of its national culture. Tongue twisters and riddles are considered an important component of folk art. They vividly reflect a people's way of thinking, language, and spirituality, taking on unique forms and meanings in different languages. In Uzbek, they are more closely tied to traditional life, while in French, modern and abstract features dominate. In both languages, these genres are regarded as useful tools for developing speech and enhancing logical thinking.


Key words: fast telling, riddle, sound, artistic image, rhythmic form, classification, pronunciation

Kirish: Ushbu paremeologik birliklar tilni o'stirish, xalq madaniyatini targ'ib qilish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda beqiyos o'rin tutadi. O'zbek va fransuz tillaridagi tez aytish va topishmoqlar, ularning shakllari va tasnifi orqali ikki xalq madaniyati va tiliga oid o'xshashlik va farqlarning aniqlanishi xalqaro lingvistik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bu ikki tilning og'zaki ijodi xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlanib, fransuz va o'zbek tillaridagi tez aytishlar va topishmoqlar o'rganiladi hamda ularning shakllari va tasnifi tahlil qilinadi.

Asosiy qism: I. Tez aytishlar va ularning shakllari

Tez aytishlar tilda talaffuz qobiliyatini oshirish, nutqni rivojlantirish maqsadida hamda til gimnasikasi sifatida ishlatiladi. Tez aytishlar bir necha so'z yoki iboralarning talaffuzdagi murakkabligi orqali tilni mashq qilish uchun mo'ljallangan she'riy shakllardan biridir. Ular o'ziga xos o'yin xarakteri bilan ajralib turadi.

O'zbek tilidagi tez aytishlar. O'zbek tilidagi tez aytishlar ko'pincha fonetik murakkablikka ega bo'lib, bir xil tovush va bo'g'inlarning takrorlanishi orqali talaffuzni qiyinlashtiradi. Ushbu she'riy shakllar ko'pincha yosh avlod orasida mashhur, ular tilni o'tkirlashtirish uchun ishlatiladi:



Masalan: “Qishda qatig qatig qotib qolibdi.”

[<https://baxtiyor.uz/tez-aytishlar-to-plami-eng-sara-100-ta-tez>aytish]

Bu tez aytishda “q” tovushi ko‘p marotaba takrorlanadi va talaffuzni qiyinlashtiradi. Yana bir misol:

“Salim sumkasiga patirni soldi, Salima sumkasidan atirni oldi.”

Bu yerda ham “s” tovushi takrorlanishi orqali talaffuz murakkablashtiriladi.

“Chumchuq chug‘urchiqni cho‘qimasa, chug‘urchiq chumchuqni cho‘qimaydi”.

Ushbu tez aytishda esa “ch” tovushi orqali murakkab va qiziqarli til mashqi hosil qilingan.

[<https://baxtiyor.uz/tez-aytishlar-to-plami-eng-sara-100-ta-tez>aytish]

Fransuz tilidagi tez aytishlar. Fransuz tilidagi tez aytishlar tovushlar bir-biriga o‘xshashligi va ritmik muvofiqlik orqali talaffuzdagi qiyinchiliklarni oshiradi. Ular nazm va qofiyaga asoslangan va tovushlarning bir-biriga yaqinligi talaffuzdagi qiyinchilikni oshiradi:

Exemple: “Les chaussettes de l’archiduchesse sont-elles sèches, archisèches?”

[Suggestions et compilation par Paul Sherwood (DREF, 2012)]

Bu tez aytishda “ch” va “s” tovushlari talaffuzga qiyinchilik tug‘diradi.

Un autre exemple: “Un chasseur sachant chasser doit savoir chasser sans son chien”. Bu tez aytishda ham “ch” va “s” tovushlari takrorlanadi va talaffuz mahoratini talab qiladi.

Exemple : Le passereau ; Est-il le pote des potes du poussin ,

Le poussin ; Est-il le pote des potes du passereau? [Sarah-Rose la rosophile, 2005]

Yuqoridagi tez aytishlar fonetik murakkablik asosidagi tez aytishlar hisoblanadi.

Umumiy xususiyatlar va farqlar. Umumiylik: Har ikkala tilda tez aytishlar talaffuz qobiliyatini oshirishga, nutq ravonligini rivojlantirishga, hamda xotirani mustahkamlashga qaratilgan. Farqlar: O‘zbek tez aytishlarida xalqona oddiylik, real hayotiy obrazlar namoyon bo‘ladi. Fransuz tilida esa badiiy noziklik va nazmiy shakl kuchliroq seziladi.

II. Topishmoqlar va ularning shakllari

Topishmoqlar – bu ramzlar va o‘xshatishlar orqali yashirilgan ma’nolarni topishga asoslangan she’riy yoki prozaik shakldir. Topishmoqlar inson mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan qisqa va mazmunli she’rlar yoki jumalalardir.

O‘zbek topishmoqlari xalq hayotiga, tabiat hodisalariga va kundalik turmush buyumlariga asoslanadi.

Misol uchun: “Kichkina dekcha ichi to‘la mixcha” Javob: Anor

Bu topishmoqda anor so‘zi obrazli va o‘xshatish orqali tasvirlangan.

U yog‘i tog‘, Bu yog‘i tog‘,

O‘rtasida, Sarig‘ yog‘. (Yong‘oq)

[@2023uzbekliterature.uz]

Fransuz topishmoqlari ko‘proq badiiy tasvirlar va so‘z o‘yinlariga asoslanadi. Ular nazmiy shaklda bo‘lib, tabiat va inson hayotini tasvirlashda ramzlardan foydalanadi.

Exemple: Qu’est-ce qui a plein de dents mais ne peut pas mordre ?

Réponse: Un peigne. [© devinette.life 2020 | [Mentions légales](#)]

Bu topishmoqda metaforik yondashuvdan foydalanilgan.

Fransuz topishmoqlari poetik va nozik ifodali bo‘lib, turli mavzularda bo‘ladi. Ular bolalar va kattalar uchun birdek qiziqarli bo‘ladi.


Exemple: Qu’est-ce qui doit être cassé pour être utilisé ?

Réponse : L’œuf. [© devinette.life 2020 | [Mentions légales](#)]

Exemple: Qu’est-ce qui a quatre doigts et un pouce mais n’est pas vivant ?

Réponse: Un gant. [© devinette.life 2020 | [Mentions légales](#)]

Umumiy xususiyatlar va farqlar. Umumiylik: Har ikkala tilda ham topishmoqlar bolalar va kattalar uchun qiziqarli o‘yin shakli bo‘lib, ramz va o‘xshatishga, qiyoslashga asoslangan. Farqlar: O‘zbek tilidagi topishmoqlarda xalqona obrazlar ustunlik qiladi va xalq og‘zaki ijodida topishmoqlar xalq hayoti, tabiat va kundalik hayot tarzi mavzulariga bag‘ishlangan



bo'ladi. Ular ko'pincha o'xshatish va ramzlar orqali ifodalanadi. Fransuz tilida esa poetik va badiiy tasvirlar kuchliroq va ustunroq bo'ladi.

III. Fransuz va o'zbek tez aytish va topishmoqlarining tasnifi

Mazmun bo'yicha tasnif. Tez aytishlar:

O'zbek tilida: Topishmoqlar kabi kundalik turmush tarzi va xalqona obrazlar bilan bog'liq bo'ladi. Fransuz tilida: Til o'yinlari va poetik shaklga asoslanadi.

Topishmoqlar: O'zbek tilida: Hayotiylik va real buyumlar asosida yaratilgan. Fransuz tilida: Abstrakt va poetik ramzlarga boy bo'ladi.

Exemple: Même si je montre l'heure, on me donne un nom d'oiseau. Qui suis-je ?

Réponse : Le coucou.

[Date : 27/12/23 Auteur : animyjob]

Shakl va yasallish bo'yicha tasnif. Tez aytishlar: Fonetika va talaffuz murakkabligiga asoslanadi. Topishmoqlar: Nazm yoki proza shaklida ifodalanadi.

Maqsad va ahamiyat bo'yicha tasnif: -Tilni rivojlantirish.

-Mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

-Madaniy o'ziga xoslikni namoyon qilish.

IV. Tez aytish va topishmoqlarning ma'naviy va didaktik ahamiyati

1. Tilni rivojlantirish: Tez aytishlar bolalar va kattalarda talaffuz va nutqni yaxshilash va o'stirish uchun xizmat qiladi. Topishmoqlar so'z boyligini oshiradi, fikrlashni rivojlantiradi, xotirani mustahkamlashga hissa qo'shadi.

2. Madaniy o'ziga xoslikni targ'ib qilish: O'zbek topishmoqlari xalq turmushi va an'analarini ifodalaydi. Fransuz topishmoqlari esa madaniyatning poetik ifodasi sifatida ahamiyatlidir.

3. O'yin va ta'lim vositasi: Bolalar uchun qiziqarli o'yin sifatida ishlatiladi.

Kattalar uchun yangi bir tilni o'rgatish jarayonida qo'llaniladi.

Tahlil va natijalar:

Fransuz va o'zbek tillaridagi tez aytish va topishmoqlarni shakllari va tasnifi bo'yicha tahlil qilish natijalarida quyidagi asosiy xulosalar o'rin olishi mumkin:

1. Shakllari va tuzilishi bo'yicha farqlari: O'zbek xalq tez aytishlari: Oddiy va ritmik tuzilishlarga ega bo'lib, ko'pincha tovushlarning o'zaro birikishida murakkablik yaratiladi. Qisqa va sodda jumlar ustunlik qiladi. Masalan: "Suv quyguncha, suv quyib, suv to'ldirib qo'yguncha."

Fransuz tez aytishlari: murakkab tovush birikmalaridan foydalanilib, talaffuzdagi o'ziga xoslikka e'tibor qaratiladi. Ko'pincha tovushlarning burun tovushlari va o'xshash tovushlarning o'zaro ketma-ketligi bilan farqlanadi. Exemple: "Trois gros rats gras sont entrés dans trois grands trous très creux."

[Suggestions et compilation par Paul Sherwood (DREF, 2012)]

Exemple: Le passereau est-il le pote des potes du poussin,

Le poussin est-il le pote des potes du passereau?[Sarah-Rose la rosophile,2005]

O'zbek topishmoqlari: Ko'proq obrazli ifoda, xalqona tilda qisqa va sodda tarzda tuziladi. Aniq va ko'p ishlatiladigan buyumlar yoki hodisalar tilga olinadi.

Masalan: "Teg desam, tegmaydi,


Tegma desam, tegadi". Javob: Lab [@2023uzbekliterature.uz]

Fransuz tilidagi topishmoqlarda obrazlar mavhumroq bo'lib, o'yinqaroq va kulgili so'z o'yinlariga asoslanadi.

Exemple : Même si je porte des lunettes je ne peux pas voir, qui suis-je ? (Le nez.)

2. Tasnifi va mazmuniy jihatlari:

Tez aytishlarning tasnifi: O'zbek tilida: Asosan tovushlar o'xshashligi, tovush va bo'g'in o'yinlari (alliteratsiya, assonans, paronaz) asosida bo'linadi. Shuningdek, ma'lum bir mavzular, masalan, tabiat, maishiy texnika yoki ijtimoiy muhitni tasvirlashga xizmat qiladi.



Fransuz tilida esa tez aytishlar talaffuzni murakkablashtiruvchi tovush va bo'g'inlar yoki ritmik ifodalardan iborat bo'lib, bu o'yin va nutq mashqlariga mo'ljallangan.

Topishmoqlarning tasnifi: O'zbek tilida: jamiyat-hayotimizdagi barcha mavzularda bo'lishi mumkin: jumladan tabiatga oid topishmoqlar: Quyosh, oy, yomg'ir kabi tushunchalarni qamrab oladi. Maishiy hayotga oid: Idish-tovoqlar, kiyim-kechak, kundalik foydalaniladigan buyumlar haqida bo'ladi.

Masalan: Tap-tap etadi,

Ursam uchib ketadi. Javob:Koptok

[@2023uzbekliterature.uz]

Mifologik va xalqonaligi jihatdan: O'zbek tilida afsonalar yoki xalqning e'tiqodlari bilan bog'liq obrazlar ishlatiladi. Fransuz tilida: Logikaga oid topishmoqlar bo'ladi ya'ni javoblarni mantiqiy xulosalash orqali topishni talab qiladi. Exemple: Quel est le pain préféré du magicien ? Réponse : La baguette.

[© devinette.life 2020 | [Mentions légales](#)]

3. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qarash. O'zbek tilidagi tez aytishlar va topishmoqlar fonetik jihatdan sodda bo'lsa-da, talaffuzdagi aniqlik va til egiluvchanligini oshiradi. Fransuz tilida talaffuzning murakkabligi va tovushlarning xilma-xilligi ko'proq e'tiborga olinadi, bu esa nutqning o'ziga xosligi va talaffuz madaniyatini o'rganishga yordam beradi.

Topishmoqlar rivojlanishning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, barcha xalqlarda uchraydi. O'z shakliga ko'ra xalq topishmoqlari maqollarga yaqin: bir xil o'lchovli, izchil nutq, qofiya va so'zlarning bir xil tez-tez ishlatilishi. Ba'zan faqat so'roq shakli maqol, maqol yoki maqoldan topishmoq yasaydi. Maqol va topishmoq shu bilan farq qiladiki, topishmoqni taxmin qilish kerak, maqol esa saboqdir.[Даль В. И.,1862]

Xulosa: Fransuz va o'zbek tillaridagi tez aytishlar va topishmoqlar mazmuni va shakli jihatidan turlicha bo'lsa-da, ularning asosiy vazifasi bir xil, maqsadi umumiy: tilda talaffuzni rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni o'stirish va o'yin orqali madaniyatni boyitish va saqlash. Ushbu shakllar xalqning boy madaniy merosi sifatida avloddan avlodga o'tib kelmoqda va har bir tilning o'ziga xos boyligini ko'rsatadi. Ularning tasnifi orqali har ikki xalqning og'zaki ijodidagi o'ziga xoslik va umumiylikni aniqlash mumkin Ularning qiyosiy o'rganilishi lingvistik va madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu esa tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahongirov G'., „Tez aytish“, O'zbek tili va adabiyoti, № 3 (1972), 49-52.

2. Sarah-Rose la rosophile = Gulsevar Gulsara: virelangues d'Ouzbékistan, choisis, présentés et traduits de l'ouzbek et du qaraqalpaq par Rémy Dor, Paris: L'Asiathèque – IFEAC, 2005, 153p.

3. Suggestions et compilation par Paul Sherwood (DREF, 2012)

4. O'zbek folklori: Pedagogik institutlar ucun xrestomatija, tuzuvchi H. Zarif, Toshkent: O'zSSR o'quv-pednashr, 1941, 1-kitob.

5.<https://baxtiyor.uz/tez-aytishlar-to-plami-eng-sara-100-ta-tez>aytish

6.@2023uzbekliterature.uz

7.© devinette.life 2020 | [Mentions légales](#)

8. Даль В. И.. Пословицы русского народа. Сборник пословиц, поговорок, речений, присловий, чистоговорок, загадок, поверий и проч. — М., 1862, и СПб., 1879;